

MUSIQIY SO‘ZLAR VA ULARNING XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDAGI O‘RNI

Doktor Muhammad Ali Abdulvohid Avaz

Qohira universiteti doktori (PhD), Misr

Dotsent O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Arab tili va adabiyoti” kafedrasi (Al-Azhar)

E-mail: almisriymuhammad@gmail.com

Tel: +998993730375

Annotatsiya: O‘qituvchilar, ayniqsa, xorijiy til o‘qituvchilari o‘quvchilar uchun qiziqarli va qulay o‘quv muhitini yaratish uchun innovatsion usullarga muhtoj. Shunday yondashuvlardan biri she‘rlar, qo‘shiqlar va shunga o‘xshash matnlar orqali musiqiy so‘zlardan foydalanishdir. Ushbu maqola musiqiy so‘zlarning xorijiy tillarni o‘rganishdagi o‘rni hamda ularni samarali qo‘llash orqali erishiladigan foydalarni yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: musiqiy so‘zlar – so‘z musiqasi –xorijiy tillarni o‘rganish – ikkinchi til –ta‘lim metodlari – pedagogik strategiyalar.

MUSICAL WORDS AND THEIR ROLE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Mohamed Ali Abdelwahed Awad

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,

Department of “Arabic language and literature “Al-Azhar”

doctor of philosophy PhD, Acting Associate Professor

Abstract: Teachers, especially foreign language instructors, need innovative methods to create an engaging and supportive learning environment. One approach is using musical words through poems, songs, and similar texts. This article explores their role and benefits in foreign language learning.

Keywords: musical words – word music – foreign language learning – second language – teaching methods – instructional strategies.

МУЗЫКАЛЬНЫЕ СЛОВА И ИХ РОЛЬ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Резюме: Учителям, особенно иностранного языка, нужны инновационные методы для создания увлекательной и поддерживающей учебной среды. Один из таких методов — использование музыкальных слов через поэзию, песни и подобные тексты. Статья раскрывает роль музыкальных слов и их преимущества в изучении иностранных языков.

Ключевые слова: музыкальные слова – музыка слова – изучение иностранных языков – второй язык – методы обучения – педагогические приёмы

Kirish:

Arab tilini ona tili bo'lmaganlarga o'qitish jarayonidagi tajribamdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, arab tilining musiqiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar duch keladigan ko'plab muammolarga samarali yechim bo'la oladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi umumiy tarzda, xorijiy tillarni, xususan, arab tilini o'qitishda so'z musiqasidan foydalanishning afzalliklarini ochib berishni maqsad qilgan. Ushbu afzalliklar quyidagilardan iborat:

1. Bir maromdagi o'qitish va zerikishni bartaraf etish:

Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan bir xil, takrorlanuvchi usullar sababli o'quvchilar ko'pincha zerikish va toliqish holatini boshdan kechiradilar. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadigan, ularni ishtirok etishga undaydigan yoqimli va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish uchun yangicha, innovatsion usullarga ehtiyoj sezadilar. Bunday usullardan biri arab tilini qo'shiqlar va musiqiy unsurlarga boy matnlar orqali o'rgatishda musiqiy so'zlardan foydalanishdir. Bu yondashuv o'quvchilarning ta'lim jarayoniga zavq, ruhiy

ko'tarinkilik va quvonch olib kiradi hamda shu yo'l bilan zerikarli dars va charchoq muammosini samarali hal qiladi.

Bu borada bir nechta tadqiqotlar mavjud. Masalan, Asma binti Masudning Malayziya davlat o'rta maktablarida lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirishda qo'shiqlardan foydalanish samaradorligi haqidagi tadqiqotida ko'rsatilishicha, qo'shiqlar o'quvchilar uchun jozibador va yoqimli bo'lgani sababli arab tilini o'rganish jarayonidagi zerikish va tushkunlikni kamaytirgan [4, p. 117].

Xuddi shuningdek, Ahmad Xalaf Yūsuf ham arab tilini ona tili bo'lmaganlarga o'qitishda fonetik qiyinchiliklarni bartaraf etishda qo'shiqlarning samaradorligi haqidagi tadqiqotida shuni ta'kidlaydiki, qo'shiqlardan foydalanish darsdagi bir xillikni yo'qotib, o'qituvchi hamda o'quvchilarda faollikni oshiradi [6, p. 139].

2. Leksik zaxirani kengaytirish va lingvistik faoliyatni takomillashtirish

Musiqiy so'zlar o'quvchilarni matnlarni takrorlashga, ularni kuylash va ohang bilan aytishga undaydi. Bu esa eslab qolishni osonlashtirib, til ravonligini kuchaytiradi. Arab tilini namunalarni takrorlash orqali o'rganish o'quvchi xotirasida so'z va iboralarning mustahkamlanishiga hamda ulardan zarur vaziyatlarda tezda foydalanishga yordam beradi. She'rlar, maqollar, hikmatli so'zlar kabi qisqa va ohangdor matnlardan foydalanish talaffuz, notiqlik va ifodaviy nutqni rivojlantiradi, shuningdek, so'z boyligi va nutqni hamda yozuv uchun kerakli til birliklarini boyitadi. Asma binti Masudning Malayziya o'rta maktablarida o'tkazgan tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, qo'shiqlar orqali lug'at o'rganish eslab qolish qobiliyatini yaxshilagan va tajriba guruhidagi o'quvchilar qo'shiqlar orqali so'zlarni o'zlashtirishda nazorat guruhidagi o'quvchilarga nisbatan yuqori natijani ko'rsatgan, shuningdek, mazkur usul tajriba guruhi o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirgan. U arabcha so'zlarni yodlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qo'shiqlardan foydalanishni tavsiya qiladi [4, p. 118- 117].

Shuningdek, arab tilini o'rgatishda qo'shiqlardan foydalanish o'rganuvchilarning so'zlar, ularning sinonimlari va antonimlari haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Bu esa o'rganuvchining lug'at boyligini oshiradi [6, p. 139].

Fatima Shaqini va Bekadi Mohamed qo'shiqlar va yodlangan matnlarning arab tilini o'qitish va o'rganishdagi o'rni haqidagi tadqiqotida shuni tavsiya qiladilar: qo'shiqlar va yod olingan matnlarning ta'lim jarayonidagi rolini faollashtirish kerak, chunki ularning hissiy va kognitiv jihatdan ijobiy ta'siri mavjud. Bu ta'sirlar o'quvchilarning darajalarini yaxshilashga, ularning tilini sayqallashga va lug'aviy hamda fikriy zaxirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Yangi so'zlarning qo'shilishi ularga o'z fikrlarini yanada samarali ifodalashga yordam beradi.

Shu asosda tadqiqotchilar qo'shiqlar va yodlangan matnlar o'rganuvchilarning darajalarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadigan muhim sinf mashg'ulotlari ekanini xulosa qiladilar. Ular o'quvchining sog'lom va to'g'ri til rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, arab tiliga nisbatan ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, yodlash va eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi, so'zlarning go'zalligini his qilishni kuchaytiradi hamda umumiy til o'rganish ko'nikmalarini yaxshilaydi [5, p. 319–320].

3. O'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirish

Arab tilini ona tili bo'lmaganlarga o'qitishda o'qituvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan biri — motivatsiyaning pastligi. Ba'zi o'qituvchilarning an'anaviy o'qitish usullariga qat'iy yopishib olishi, o'quvchining rolini passiv holga keltirishi va uni dars jarayoniga jalb qilmasligi bu muammoni yanada kuchaytiradi. Shu bois o'qituvchilar o'quvchilarda motivatsiyani kuchaytiradigan va o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradigan ta'limiy usullardan foydalanishlari lozim [6, p. 57- 56].

Bu usullar qatoriga ohang bilan aytish, yoddan o'qish va kuylash kiradi. Ushbu jarayonlarda so'zlarning musiqiyligidan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini tortadi va ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'shiqlar orqali arab tilini o'rganish o'quvchilarning motivatsiyasini

rag‘batlantiradi, she‘riy ritm orqali ularga energiya beradi va ularning sinf ichida ham, tashqarisida ham o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi [4, p. 117; 7, p. 139].

4. Talaffuz va fonetik muammolarni bartaraf etish

Arab tili ona tili bo‘lmagan o‘rganuvchilar ba‘zi harflar va tovushlarda fonetik hamda talaffuz qiyinchiliklariga duch keladilar. Bunga ona tili ta‘siri va tillararo aralashuv sabab bo‘lib, o‘rganuvchi o‘z ona tilidagi tovush xususiyatlarini arab tiliga ko‘chirib olishi mumkin. Shuningdek, ular fonetik jihatdan o‘xshash tovushlarni chalkashtirib yuborishlari mumkin, masalan: sin (س) — sod (ص), ‘ayn (ع) — hamza (ء), ha (ه) — ha (ح), kha (خ), zod (ض) — zo (ظ)

Bunday muammolar tilni to‘g‘ri o‘rganishga to‘sqinlik qiladi hamda o‘quvchilarni xato qilishdan uyalgani yoki qo‘rqqani sababli arabcha gapirishdan tiyilishlariga olib keladi. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kamaytiradi. Ko‘pincha o‘qituvchi bu muammolarga e‘tibor bermasa, ular hatto til o‘rganish darajasi yuqori bo‘lganda ham davom etadi. Biroq o‘qituvchilar o‘rganilishi maqsad qilingan harflar ishtirok etgan qo‘shiqlar yoki ritmik kuylanadigan iboralar yordamida so‘zlarning musiqiyligidan foydalanib bu muammolarni bartaraf etishlari mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, arab tilini o‘qitishda qo‘shiqlardan foydalanish talaffuzni tuzatishda, tovushlarni to‘g‘ri chiqarishda, fonetik xususiyatlarni to‘g‘ri bajarishda hamda aniq, ravon va chiroyli nutqni shakllantirishda samaralidir [1, p. 171; 2, p. 16].

Fonetik qiyinchiliklarni bartaraf etishda qo‘shiqlarning samaradorligini tekshirish uchun Ahmad Xalaf Yūsuf arab tilini ona tili bo‘lmaganlarga qo‘shiqlar orqali o‘rgatish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdi. U ikki guruh uchun og‘zaki va yozma testlardan foydalandi:

- 1-guruh: Qo‘shiqlar yordamida o‘qitilgan.
- 2-guruh: An‘anaviy usullar bilan o‘qitilgan.

Og'zaki test natijalariga ko'ra, 1-guruh 110 balldan 88 ball to'plagan, 2-guruh esa 130 balldan 77 ball olgan. Yozma test natijalarida esa 1-guruh 110 balldan 81 ball, 2-guruh esa 130 balldan 66 ball to'plagan [6, p. 151].

Bu natijalar qo'shiqlardan foydalanish arab tilini o'qitishda talaffuz va fonetik muammolarni bartaraf etish uchun samarali usul ekanini ko'rsatadi.

5. Uyatchanlik va tortinchoqlik muammosini bartaraf etish

Ba'zi o'rganuvchilar uyatchanlik va tortinchoqlikdan aziyat chekib, yakka holda gapirishga ikkilanadilar. Bu esa ularning sinfdagi muhokamalarda ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Qo'shiqlar va ritmik-musiqiy matnlarni jamoaviy tarzda kuylash yoki ohang bilan o'qish ushbu muammoni bartaraf etishda samaralidir. Bunday yondashuv o'rganuvchilarga qo'rquv va uyalishsiz do'stlari bilan birga matnlarni baland ovozda takrorlash imkonini beradi [5, p. 307]. Shuningdek, o'rganuvchilar jamoaviy tarzda kuylaganlarida, ular o'zlarini muhim shaxs sifatida his qiladilar va dars jarayonida faol ishtirokchi sifatida qatnashadilar [1, p. 226].

Shu asosda, Fatima Shaqini va Bekadi Mohamed arab tilini o'qitishda qo'shiqlar va yodlangan matnlarning o'zni haqidagi tadqiqotida shunday xulosaga keladilar: jamoaviy tarzda bajariladigan qo'shiqlar va ohangli matnlar yakka holda gapirishdan qo'rqadigan uyatchan o'rganuvchilarga yordam berishda juda samaralidir. Bu faoliyatlar ularni sinfdagi barcha vazifalarda ishtirok etishga undaydi va ijtimoiy hamda lingvistik faollikni rivojlantiradi [5, p. 318–319].

Xulosa

Arab tilidagi so'zlarning musiqiylikidan foydalanish arab tilini o'qitish va o'rganishda uchraydigan ko'plab muammolarni — zerikish, motivatsiyaning pastligi, talaffuzdagi qiyinchiliklar va uyatchanlikni — samarali hal qiladi. Shuningdek, u lug'at boyligini oshiradi, til ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi va arab adabiyotiga kirish uchun samarali yo'l beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdul Alim, Ibrohim. (n.d.). Arab tilini o‘qitish bo‘yicha texnik qo‘llanma. 3-nashr. Dar Al-Maaref, Misr.
2. Al-Masri, Abeer Hamdan. (2016). Ta’limiy qo‘shiqlardan foydalanishning arab tili grammatikasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga ta’siri (Magistrlik tadqiqoti). Islom Universiteti, G‘azo.
3. Awad, Mohamed Ali Abdulwahid. (2021). COVID-19 pandemiyasi davrida arab tili yozma ko‘nikmalarini ona tili bo‘lmaganlarga o‘rgatish: Muammolar va yechimlar. Pandemiya davrida chet tillari ta’limi bo‘yicha birinchi xalqaro konferensiya materiallari, 1-jild.
4. Masoud, Asma. (2011). Malayziya davlat o‘rta maktablarida lingvistik ko‘nikmalarni o‘qitishda qo‘shiqlardan foydalanish samaradorligi: Tavsifiy va baholovchi tadqiqot (Magistrlik dissertatsiyasi). Vahiy ilmlari va gumanitar fanlar fakulteti, Xalqaro Islom Universiteti, Malayziya.
5. Shaqini, Fatima, & Bekhadi, Mohamed. (2020). Beshinchi sinfda arab tilini o‘qitish va o‘rganishda qo‘shiqlar va yodlangan matnlarning o‘rni. Afaaq Ilmiya jurnali, 12(01).
6. Youssef, Ahmed Khalaf. (2020). Arab tilini ona tili bo‘lmagan o‘rganuvchilarda fonetik qiyinchiliklarni bartaraf etishda qo‘shiqlarning samaradorligi. Al-Tawasul jurnali, 6(17).

المراجع:

- 1- عبد العليم، إبراهيم. (د.ت). الموجه الفني في تدريس اللغة العربية، دار المعارف، ط 3، مصر.
- 2- المصري، عبير حمدان. (2016). أثر توظيف الأناشيد التعليمية في علاج صعوبات القواعد النحوية، بحث مقدم لاستكمال درجة الماجستير، الجامعة الإسلامية، غزة.
- 3- عوض، محمد علي عبد الواحد. (2021). تدريس مهارة الكتابة باللغة العربية للناطقين بغيرها في ظل جائحة كورونا المشاكل والحلول، المؤتمر الدولي الأول: تعليم اللغات الأجنبية خلال الجوائح، الأبحاث العلمية المحكمة، المجلد الأول.

- 4- مسعود، أسماء. (2011). فاعلية طريقة الأناشيد في تعليم المهارات اللغوية في المدارس الثانوية الحكومية بماليزيا: دراسة وصفية وتقييمية، بحث تكميلي مقدم لنيل درجة الماجستير، كلية معارف الوحي والعلوم الإنسانية، الجامعة الإسلامية العالمية – ماليزيا.
- 5- شقيني، فاطمة & بكادي محمد. (2020). دور الأناشيد والمحفوظات في تعلم وتعليم اللغة العربية في السنة الخامسة من التعليم الابتدائي، مجلة آفاق علمية، مجلد: 12 عدد: 01.
- 6- يوسف، أحمد خلف. (2020) فاعلية الأناشيد في معالجة الصعوبات الصوتية لدى متعلمي اللغة العربية للناطقين بغيرها، مجلة التواصلية، المجلد 6، العدد 17.

